

8-sinf Adabiyot fanidan

I chorak 1- BSB

Insho

Mavzular:

1. “Kuntug‘mish” dostonidagi Kuntug‘mish va Xolbeka timsollariga tavsif
2. Kuntug‘mish – taqdir sinovlariga bardoshli inson
3. Mohiboy va Gurkiboy timsollarida kurashchanlik, bardoshlilik fazilatlarining ifodasi.
4. Navoiy she’riyati shaydosiman.
5. Lutfiy – latif satrlar sohibi.

Insho yozish uchun kalit so‘zlar:

I Kirish qismi uchun:

xalq og‘zaki ijodi, doston janri, o‘qib o‘rgandik, barchaga ma’lumki, hech kimga sir emaski, bilamizki, muhim o‘rin tutadi...

II Asosiy qism uchun: *fikrimcha, menimcha, nazarimda, xususan, chunonchi, zero, shu bois, e’tiborli jihati shundaki...*

III Xulosa qismi uchun:

demak, fikrlarimni yakunlaydigan bo‘lsam, xulosa shuki, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki,

Insho yozish uchun ko‘rsatmalar:

- Fikr-mulohazalaringizni badiiy uslubda bayon qiling.
- Fikrlaringizni mantiqiy izchillikda, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda ifodalang.

Insho uch tarkibiy qismdan iborat bo‘lishi lozim:

I. Kirish. Inshoning kirish qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) kirish qismi to‘rtta-beshta jumladan iborat bo‘lishi lozim;
- 2) insho kirish qismida tanlab olgan mavzuyingizga qarab tegishli asar va undagi qahramonlarga umumiy tavsif bering yoki muayyan ijodkor asarlariga yuzaki kirish qiling;

II. Asosiy qism. Inshoning asosiy qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qismda tanlab olgan mavzuyingizdan kelib chiqqan holda muayyan asar qahramonlari haqida, ularning asardagi o‘rni haqida atroflicha izohlar bering yoki tegishli ijodkorning lirik merosi, uning ayni bir asari umumiy mazmunini yoritishga harakat qiling;
- 2) tanlab olingan mavzudan kelib chiqqan holda shaxsiy mulohazalaringizni batafsil va dalillar asosida yoritib;
- 3) bayon qilayotgan fikr-mulohazalaringiz bugungi kun bilan bog‘langan va mavzu doirasida bo‘lishi lozim.

III. Xulosa. Inshoning xulosa qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarni umumlashtiring;
- 2) xulosa to'rtta-beshta jumladan iborat bo'lishi lozim.

Inshoni baholash mezonlari		1 ta	2 ta	3-4 ta	5-7
Imlo xatolari	10 ball	10 ball	9 ball	8 ball	6 ball
Uslubiy xatolar	5 ball	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
Tinish belgilari	5 ball	5 ball	4 ball	3ball	2 ball
Mavzuning dalillar asosida (asardan parcha) yoritilishi	10 ball				
Asardan olingan parchalar to'g'ri tahlil qilinsa, o'z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilsa, epigraf inshoga mos tarzda tanlangan bo'lsa va tuzilgan reja mavzuga to'la mos bo'lsa	9-10 ball				
Asardan olingan parchalar qisman tahlil qilinsa, o'z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilsa, epigraf inshoga mos tarzda tanlangan bo'lsa va tuzilgan reja mavzuga qisman mos kelsa	7-8 ball				
Asardan olingan parchalar keltirilgan, biroq o'z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilmasa, epigraf inshoga mos emas va tuzilgan reja mavzuga qisman mos kelsa	4-6 ball				
Badiiyligi (so'z qo'llash mahorati, she'riy parchalar, maqollar, aforizmlarni qo'llash)	10 ball				
Iboralar, sifatlashlar, ko'chma ma'noli, sinonim, antonim so'zlarni o'rinli qo'llagan bo'lsa	9 -10 ball				
Sinonim so'zlarni to'g'ri qo'llagan bo'lsa	7- 8 ball				
Fikr bo'yoqsiz, shunchaki ma'lumot sifatida qo'llangan bo'lsa	6-5 ball				
Husnixat	3 ball				
Husnixat aniq va ravon, tushunarli bo'lsa	3 ball				
Husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan bo'lsa, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa	1 ball				
Mustaqil fikr bildira olish xususiyati	5 ball				
Har ma'lumot izohlanib, xulosa, qiyosiy tahlil qilinib, o'z munosabati ifodalangan bo'lsa,	5 ball				
Mavzu bo'yicha ma'lumotlar darslik asosida ifodalanib, o'quvchining o'z dunyoqarashi ifodalanmagan bo'lsa	3-4 ball				

Qolgan holatlar	1-2 ball				
Ozodalik (bo'yamasdan yozish)	2 ball				
JAMI:	50 ball				